

**Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi va tizim korxonalarida
2026-yilning I-yarim yillik davomida korrupsiyaga qarshi kurashish
sohasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
HISOBOT**

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida 2026-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiradigan chora-tadbirlar Dasturi ishlab chiqildi va tasdiqlandi hamda mazkur hujjat doirasida tegishli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, joriy yilning I-yarim yilida ushbu Dasturdagi 35 ta vazifalar belgilangan muddatlarda amalga oshirilgan, shundan 21 ta tadbirlar bajarilishi doimiy amalga oshirib kelinmoqda.

Hisobot davrida vazirlik rahbariyati tomonidan korrupsiyaga qarshi tashviqot ishlarida bevosita ishitiroki davom ettirildi.

Xususan, joriy yilning 27-yanvar kuni o‘tkazilgan Hay‘at yig‘ilishida korrupsiyaga qarshi talablar va axloqiy me‘yorlarga va qonun hujjatlariga qat’iy amal qilishga doir bevosita **Kon-geologiya vaziri B. Islamovning** Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar, aniqlangan korrupsiya holatlari, ularni keltirib chiqaruvchi omillar va ularni barvaqt oldini olish, barham berish bo‘yicha choralarni ko‘rish bo‘yicha topshiriqlar berilgan (7-26-son bayon).

Korrupsiyaga qarshi talablar va axloqiy me‘yorlarga va qonun hujjatlariga qat’iy amal qilishga doir bevosita Kon-geologiya vaziri B. Islamov tomonidan 30-aprel kuni tadbir o‘tkazildi va unda har bir tizim korxonalarida o‘z faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash, korrupsiogen omillarga barham berish choralarni ko‘rish to‘g‘risida topshiriqlar berilgan (bayon №32-26).

Bundan tashqari, vazirlik va tizim korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida yillik Axborotnomada Kon-geologiya vazirining sohaga oid chiqishi mavjud (<https://gov.uz/oz/mingeo/pages/yillik-axborotnomalar>).

Hisobot davrida vazir o‘rinbosari **U. Yusupov** vazirlikning Odob-axloq komissiyasi yig‘ilishida o‘z chiqishi (bayon № 9-26, 16.02.2026-y.), korrupsiyaga qarshi targ‘ibot tadbiridagi ma‘ruzasi (bayon № 28-26, 01.05.2026-y.), vazir o‘rinbosari **R. Yusupov** joriy yilning 15-may kuni tizimda maishiy korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida davra suhbatida chiqishlari mavjud (xavola: <https://t.me/uzdavgeolcom/22842>).

Vazir kotibiyati boshlig‘i **Z. Saidov** tomonidan 2 ta tadbir davomida mazkur sohadagi amalga oshirilayotgan ishlar qayd etilishi bilan birga, xodimlarning mazkur sohadagi bilim va ko‘nikmalarini oshirishga doir maru‘za qilgan (havola: <https://t.me/uzdavgeolcom/21638>).

Kon-geologiya vazirligida korrupsiyaviy holatlarni oldini olish maqsadida ishonch telefoni va telegram bot kanali to‘g‘risidagi ma‘lumotlar tizim korxonalarining axborot resurslari orqali ommalashtrildi, rasmiy veb saytida esa “Korrupsiyaga qarshi kurashish” bo‘yicha alohida sahifasida sohaga oid me‘yoriy hujjatlar va yangiliklar yoritilmoqda.

Bugungi kunda Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi va tizimosti korxonalari – “Navoiy KMK”, “Olmaliq KMK”, “Oʻzmetkombinat” “Oʻzbekkoʻmir”, “Sharqʻunkoʻmir”, “Oʻzbek geologiya qidruv”, “Oʻzbekiston texnologik metallar kombinati” AJlari, “Navoiyuran” DK, “Oʻzbekgidrogeologiya”, “Yer qaʻridan foydalanish markazi”, “Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti”, “Geologiya fanlar universiteti”, “Gidrogeologiya va muxandislik geologiyasi instituti”, “Mineral resurslar instituti”, “Geologiya va geofizika instituti”, “Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti” davlat muassasalari hamda Togʻ-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat boʻlimlari ochilgan va jami **50 dan ortiq** masʼul xodimlar faoliyat yuritib kelmoqda. Mazkur tuzilmalarning 38 nafar xodimlari korrupsiyaga qarshi ISO 37001 xalqaro standart talablari asosida oʻqitilgan.

Amalga oshirilgan chora tadbirlar natijasida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-sonli qarori talablariga muvofiq 2025-yil reyting baholash yakunlari boʻyicha Kon-geologiya vazirligi 140 dan ortiq davlat organi va tashkilotlari ichida **95 ball** toʻplagan holda, Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligi “yaxshi” deb baholanib **1-oʻrinni** qoʻlga kiritdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi yuqori darajadagi nufuzli xalqaro tadbir – “VI Toshkent aksilkorrupsiya forumi”da Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi korrupsiyaga qarshi kurashishdagi ilgʻor tajribasi eʼtirof etilib, “Komplayens-nazorat” tizimini samarali joriy etgan tashkilot sifatida maxsus mukofot bilan taqdirlandi.

Joriy yilning 22-aprel kuni vazirlik va Senatning Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qoʻmitasi oʻrtasida oʻzaro Hamkorlik memorandumini imzolandi. Mazkur hujjat ikki tomonlama hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan boʻlib, konchilik va geologiya sohasidagi korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish, ochiqlik va shaffoflikni taʼminlash boʻyicha hamda sohada parlament nazoratini ilmiy-uslubiy jihatdan taʼminlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar Dasturiga muvofiq quyidagi ishlar amalga oshirildi.

1. Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha siyosat va tartib-taomillar.

Hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha ichki meʼyoriy hujjatlar va tartib-qoidalar, yaʼni “Korrupsiyaga qarshi siyosati”, “Odob-axloq kodeksi”, “Manfaatlar toʻqnashuvini boshqarish siyosati”, “Sovgʻa berish va qabul qilish siyosati” kabi sohaga oid 20 dan ortiq ichki meʼyoriy hujjatlar qabul qilingan boʻlib, Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlar toʻgʻrisida tarqatma materiallar nashr qilindi va 2026-yil 26-yanvar kuni vazirlik xodimlariga tarqatildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tartib-qoidalar elektron tarzda axborot olish uchun Vazirlikning ichki tarmogʻi va rasmiy-veb saytida 3 ta tilda joylashtirilgan.

Bundan tashqari, hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tartib-taomillarini tadbiq etish hamda korrupsiogen omillarni tiyib turishga qaratilgan quyidagi **3 ta** ichki me'yoriy hujjatlar qabul qilindi:

1. 2026-yil 16-yanvar kuni “Sohada korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 3-son buyruq;

2. 2026-yil 23-fevral kuni “Kon-geologiya vazirligida manfaatlar to‘qnashuvi tartibga solish to‘g‘risida” 15-son buyruq;

3. 2026-yil 31-mart kuni “Ye-qaror” tizimi orqali vazirlikda tashkil etilgan komissiyaning barcha qaror va bayonlarini shakllantirish to‘g‘risida” 33-son buyruq.

Shu bilan birga, “Korrupsiyaga qarshi siyosati”, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi nizom”, “Sovg‘a berish va qabul qilish siyosati” va “Odob-axloq kodeksi” talablarini xodimlarga yetkazish maqsadida videorolik materiallari tayyorlandi va ijtimoiy tarmoqlarda ommalashtirildi (havola: t.me/uzdavgeolcom/21979, t.me/uzdavgeolcom/22046, t.me/uzdavgeolcom/22395, t.me/uzdavgeolcom/22581).

2. Tizimda manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida tasdiqlangan “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom” talablari asosida korrupsiogen omillarni barvaqt oldini olish, ularni bartaraf etish maqsadida Vazirlikning barcha xodimlari tomonidan yiliga bir marta manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish shakli (deklaratsiya) to‘ldirilishi belgilab qo‘yilgan. Shu maqsadda Kon-geologiya vazirligi ijro appartining jami

110 nafar boshqaruv xodimlari tomonidan deklaratsiya to‘ldirilgan (5 ta vakansiya mavjud).

Odob-axloq komissiyasi tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq holatlar ko‘rib chiqilganda, deklaratsiya to‘ldirgan 110 nafar xodimlardan 11 tasida ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq holat qayd etildi.

Vazirlikda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish hamda unga chek qo‘yish maqsadida Kon-geologiya vazirining 2026-yil 23-fevral kuni 15-sonli buyrug‘i qabul qilindi va tegishli chora-tadbirlar belgilab olindi. Mazkur holat bo‘yicha, ularga yaqin qarindoshlari bilan bir vazifa, obyektida yoki loyihada birgaliklikda ishlashi bo‘yicha cheklov o‘rnatildi.

Hisobot davrida vazirlikning bir nafar hodimi ishdan bo‘shashi natijasida 1 ta ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holati bartaraf bo‘ldi. Mazkur yo‘nalishda ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash maqsadida vazirlikning ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalari orqali barcha ma‘lumotlar yoritilgan (https://gov.uz/oz/mingeo/activity_page/anti_corruption).

Tizim korxonalari – “Navoiy KMK”, “O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” “O‘zbek geologiya qidiruv”, “O‘zmetkombinat” “O‘zbekko‘mir”, “Sharg‘unko‘mir”, “Olmaliq KMK” AJlari, “Navoiyuran” DK, “O‘zbekgidrogeologiya”, “Yer qa‘ridan foydalanish markazi” DM, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, “Geologiya fanlar universiteti”, “Gidrogeologiya va muxandislik geologiyasi instituti”, “Mineral resurslar instituti”

davlat muassasalarida hamda boshqa tizimosti korxonalarida xodimlari tomonidan manfaatlar to'qnashuvini oldini olish maqsadida deklaratsiyalar to'ldirilgan.

Tahlil natijasiga ko'ra 20 ta tizimosti korxonalarida jami **32763** nafar boshqaruv xodimlari tomonidan deklaratsiyalanishi natijasida **31** nafar xodimlarda haqiqiy va **896** nafar xodimlarda esa ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holati qayd etildi va mazkur holatlarni oldini olish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda (*boshqa lavozimga o'tkazish, bevosita buysinuvni o'zgartirish, tadbirkorlik subyektlarida rahbar lavozimlardan yoki o'z ulushidan voz kechish, bevosita bitta obyektida ishlashga cheklov belgilash va h.k.*).

3. Kon-geologiya vazirligi va tizim korxonalarida korrupsiogen xavf-xatarlarni baholash natijalari.

Kon-geologiya vazirligida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularni oldini olish va chek qo'yish, korrupsiya oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatga imkon beruvchi barcha sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida Vazirlik ijro apparatidagi barcha lavozimlar va funksiyalar tahlil qilinib, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar asosida Kon-geologiya vazirligida korrupsiogen xavf-xatarlar xaritasi tuzildi.

Unga ko'ra, Kon-geologiya vazirligining 28 ta funksiyalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjudligi, shundan 20 tasida korrupsiya xavf-xatari "O'rta", 8 tasida "Past" daraja qayd etilgan.

Bu yo'nalishdagi ishlar alohida Ish reja asosida davom ettirilishi begilandi va vazirlikning korrupsiogen xavf-xatariga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati shakllantirilib, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish choralari ishlab chiqildi va mas'ul ijrochilar va tadbirlar muddatlari belgilandi. Mazkur jarayonlarni barchasi "E-anticor.uz" elektron platformasiga yuklangan.

Tizim korxonalarida – "Navoiy KMK", "Olmaliq KMK", "O'zmetkombinat", "O'zbekko'mir", "Sharq'unko'mir", "O'zbek geologiya qidiruv" AJlari, "O'zbekgidrogeologiya", "Yer qa'ridan foydalanish markazi", "Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti", "Geologiya fanlari universiteti", "Mineral resurslar instituti", "Geologiya va geofizika instituti", "Gidrogeologiya va muxandislik geologiyasi instituti", "Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti" DMLari, Tog'-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi hamda vazirlik va qolgan tizim korxonalarida korrupsiogen xavf-xatarlarni baholash jarayoni amalga oshirilishi natijasida jami **2 654** ta funksiyalar baholanib, shundan **311** tasi "yuqori", **523** tasi "o'rta" va **1818** tasi "past" daraja qayd etilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, "O'zmetkombinat" AJ faoliyatidagi 10 ta funksiya korrupsiogen xavf-xatarlarni baholashdan o'tkazilmagan.

Hozirgi kunda yuqoridagi tizimosti korxonalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish choralari ishlab chiqilib, ijroga qaratilgan.

4. Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligida xaridlarni tashkil etish sohasida quyidagi tadbirlar amalga oshirilgan.

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan 2026-yilning 1-iyul holatiga jami **5,1 mlrd.** so'mlik jami **259** ta shartnomalar rasmiylashtirilgan.

Shundan 69 ta xarid (582,9 mln. so‘m) elektron do‘kondan, 95 ta (800,8 mln. so‘m) elektron auksiondan, 49 ta (835,2 mln. so‘m) kooperatsiya portali orqali, 42 ta (3368,1 mln. so‘m) to‘g‘ridan-to‘g‘ri va yagona yetkazib beruvchilar bilan, 4 ta (100,6 mln. so‘m) taklif so‘rovi asosida shartnoma imzolangan. Mazkur xaridlarni tahlil qilish natijasida quyidagilar ma‘lum bo‘ldi.

Davlat xaridlarini tahlil qilish natijasida quyidagilar ma‘lum bo‘ldi:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.09.2021-yildagi PF-6313-son Farmoni 3 (v)-bandi hamda “Kon-geologiya vazirligi bilan tuzilayotgan shartnomalarni kelishish, imzolash va ijro etish Siyosati” talablariga muvofiq har bir shartnomaga korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qo‘shimcha ogohlantirish bandlari kiritilgan;

- tuzilayotgan shartnomalarni tashabbuskor tomonidan kontragentlarni o‘rganish orqali uning ishonchliligi, moliyaviy barqarorligi, davlat amaldorlari bilan aloqadorligi, manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligini tekshirish orqali yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni kamaytirish bo‘yicha ishlar to‘g‘ridan to‘g‘ri tuzilgan **11 ta** shartnomalarda amalga oshirilgan va tegishli xulosalar taqdim etilgan;

- Kon-geologiya vazirligida davlat xaridlari jarayonida manfaatlar to‘qnashuvini oldni olish maqsadida **42 nafar** xodimlarning yaqin qarindoshlariga tegishli bo‘lgan **82 ta** tadbirorlik subyektlari ro‘yxati shakllantirildi va xaridlarni amalga oshirishda mazkur ro‘yxatdan birinchi navbatda tekshirish tartibi yo‘lga qo‘yildi;

- Ichki audit xizmati bilan birga asosiy vositalar xaridining qonuniyligi hamda asosiligi bo‘yicha jami 9 ta xulosalar berildi;

- “Davlat xaridlari to‘g‘rsida»gi Qonunining 33-moddasida “Davlat xaridlari qiymatining bozor narxlariga muvofiqligini baholash uchun davlat buyurtmachisi ochiq axborot manbalaridagi axborotlardan yoki boshqa ishonchli manbalardan foydalanish” talabi bajarilmoqda.

2026-yilning 1-iyul holatiga tizimda jami **17 821 ta** shartnomalar O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni talablari asosida tuzilgan.

Shundan, to‘g‘ridan to‘g‘ri yagona yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar **1026 tani** tashkil etadi va ularga korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qo‘shimcha ogohlantirish bandlari kiritilmoqda. Mazkur tuzilayotgan shartnomalarni tashabbuskor tomonidan kontragentlarni o‘rganish orqali uning ishonchliligi, moliyaviy barqarorligi, davlat amaldorlari bilan aloqadorligi, manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligini tekshirish orqali yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni kamaytirish bo‘yicha ishlar **1683 ta** shartnomalarda amalga oshirilgan va tegishli xulosalar taqdim etilgan.

Xaridlar jarayonida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida “O‘zmetkombinat” AJ – 11,4 mlrd. so‘m, “Navoiyuran” DK – 2,4 mlrd. so‘m, “Olmaliq KMK” AJ – 1,1 mlrd. so‘m, “O‘zbekgidrogeologiya” DM - 300 mln. so‘m, “Navoiy KMK” AJ – 256,8 mln. so‘m, “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ – 73,9 mln. so‘m va jami tizim korxonalarida **14,5 mlrd.** so‘m miqdoridagi pul mablag‘lari iqtisod qilingan.

5. Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi va tizim osti korxonalarida ishga qabul qilish jarayoni amaldagi qonunchilikka muvofiqligi va mehnat munosabatlarida amaldagi qonunchilik buzilish holatlari.

Mazkur yo‘nalishda korrupsiogen omillarni bartaraf etish maqsadida Vazirlik bo‘sh o‘rinlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar doimiy ravishda rasmiy veb-saytga va Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligining “vacancy.uz” saytida berib borilmoqda. Hicobot davrida 6 ta lavozimga fuqarolarni ishga olish ochiq tanlov va “Argos” tizimi orqali test sinovlari amalga oshirilgan hamda o‘tkazilgan sinov tadbirlarini Internet orqali real vaqt rejimida kuzatish ta‘minlangan.

Shu bilan birga, “Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnoma” asosida **6 nafar** nomzod o‘rganilgan va tegishli xulosalar berilgan. Tizim korxonalarini tomonidan jami **3777 nafar** nomzodlar o‘rganilgan va 3577 nafarga ijobiy xulosa berilgan.

Vazirlikning korrupsiyaga qarshi siyosati talablari asosida xodimlarning mehnat shartnomasiga korrupsiyaga qarshi qo‘shimcha ogohlantirish bandlari kiritilmoqda va qayta imzolanmoqda.

Mehnat munosabatlarida qonun buzilish holatlarini va aloqa kanallari orqali yuborilgan murojaatlarni o‘rganish maqsadida hisobot davrida vazirlik tomonidan **13 ta** xizmat surishtiruvini o‘tkazilgan, natijalari bo‘yicha tegishli xulosalar tayyorlangan va tegishli chora-tadbirlar ko‘rilgan. Jumladan, 10 ta xizmat tekshiruvini materiallari huquq-tartibot organlariga taqdim etildi, “Kitob geologiya milliy tabiat bog‘i” DM 1 nafar mas‘ul xodimiga intizomiy jazo qo‘llanildi.

Hisobot davrida vazirlik va tizim osti korxonalarini tomonidan jami **117 ta** xizmat surishtiruvlari o‘tkazilgan. Mazkur tadbirlar natijasida tizimosti korxonalarida aniqlangan holatlar yuzasidan huquq-tartibot organlariga jami **56 ta** hujjatlar to‘plami taqdim etilgan, ular tomonidan **5 ta** jinoyat (“*Navoiy KMK*” AJ – 1 ta, “*O‘zmetkombinat*” AJ – 1 ta, “*Navoiyuran*” DK - 1 ta, “*Yer qa‘ridan foydalanish markazi*” DM – 1 ta, “*O‘zbekko‘mir*” AJ 1 ta) ishlari qo‘zg‘atilgan, ichki me‘yoriy hujjatlar talablarini buzgan tizimosti korxonalarining **62 nafar** xodimlariga intizomiy jazo qo‘llanilgan va **21 nafar** xodim egallab turgan lavozimidan ozod qilingan.

Xizmat tekshiruvlari natijasida aniqlangan kamchiliklarni keyingi davrlarda takrorlanishini oldini olish maqsadida har bir tizim tashkiloti tomonidan tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilgan va profilaktik tadbirlar o‘tkazilgan.

6. Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi va tizim korxonalarida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish.

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida korruputsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tasdiqlangan Dasturga muvofiq tizim korxonalarida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish rejalashtirilgan.

Hisobot davrida **Vazirlik markaziy aparati** xodimlariga 2025-yilda berilgan to‘lovlar va rag‘batlantirishlarning tahlili monitoring qilindi. O‘tkazilgan monitoring tadbiri natijasida bir nafar xodimga belgilangan me‘yordan to‘langanligi ma‘lum bo‘ldi. Tadbir yakunida mazkur pul mablag‘lari qaytarilishi ta‘minlandi.

Shuningdek, Geologiya fanlari universiteti, “O‘zmetkombinat” AJ va Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasida 2025-yil davomida korruputsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki-me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqilganligi, korrupsiogen xavf-xatarlarni aniqlanganligi va ularni minimallashtirish chora-tadbirlari mavjudligi, manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solishga doir tadbirlar

bajarilganligi, o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlarini natijadorligi va yuqori riskli yo‘nalishlarda monitoring o‘tkazilganligi, xodimlarning xuquqiy ongi va madaniyatini oshirilganligi monitoringdan o‘tkazildi. Natijasi bo‘yicha mazkur tashkilotga tegishli takliflar va amaliy yordam ko‘rsatildi.

Tizim korxonalari tomonidan 20 dan ortiq monitoring tadbirlar o‘tkazilgan bo‘lib, hozirda ularni hujjatlashtirish va kequsida davrda takrorlamaslik choralari amalga oshirilmoqda.

7. Xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik prinsipini shakllantirish maqsadida o‘tkazilgan profilaktik tadbirlar va mazkur sohada malaka oshirish bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tasdiqlangan Dasturga muvofiq Vazirlikning “Korrupsiyaga qarshi siyosati”, “Odob-axloq kodeksi”, “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom” talablari asosida tushuntirish-profilaktik tadbirlari o‘tkazildi.

Jumaladan, 2026-yilning 14-yanvar kuni Geologiya fanlari universitetida “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadida seminar o‘tkazildi.

Shuningdek, joriy yilning 2- va 25- fevral kunlari Kon-geologiya vazirligi markaziy apparati xodimlari o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tushuntirish ishlarini olib borish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida davr suhbatini tashkil qilindi.

Joriy yilning 1-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi mas‘ul xodimlari ishtirokida vazirlik xodimlariga korrupsiya tushunchasi, mazkur sohadagi qonunchilik talablari, korrupsiyaviy harakatlar uchun javobgarlik to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yetkazish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini doimiy ravishda yuksaltirish maqsadida seminar o‘tkazildi.

Shu bilan birga, vazirlikning 11 nafar xodimlari “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiya”sida o‘qitildi va tegishli sertifikatlar olindi. Shundan 4 nafari vazirlikka yangi ishga kirgan xodimlar.

Hisobot davrida Vazirlik va tizim korxonalari xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida ichki nazorat tuzimlarining xodimlari tomonidan jami **233 ta tushuntirish-profilaktik tadbirlari amalga oshirildi.**

8. Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta‘minlash hamda ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorlik sohasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi rasmiy saytida uchta (o‘zbek, ingliz, rus) tillarida korrupsiyaga qarshi kurashish sahifasi ochilgan va bu yo‘nalishdagi ichki me‘yoriy hujjatlar joylashtirilgan hamda tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar doimiy yoritib borilmoqda. Jumladan, hisobot davrida tizim korxonalari tomonidan ommaviy axborot vositalari va rasmiy veb-saytlari orqali jami **475 ta** sohaga oid materiallar joylashtirilgan.

Xususan, Kon-geologiya vazirligi 20 ta, Geologiya fanlar universiteti – 86 ta, “O‘zmetkombinat” AJ – 56 ta, “Navoiyuran” DK – 42 ta, “Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti va “Mineral resurslar instituti” DM har biri 36 tadan, “Olmaliq KMK” – 31 ta, “O‘zTMK” AJ – 28 ta, “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ – 21 ta, “Sharg‘unko‘mir” AJ – 17 ta, “Navoiy KMK” AJ – 16 ta, “O‘zbekko‘mir” AJ – 15 ta, “O‘zbekgidrogeologiya” DM va Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi har biri 12 tadan, “Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi instituti” va “Neft va gaz konlari geologiyasi va qidiruvi instituti” DMLari har biri 8 tadan, “Yer qa‘ridan foydalanish markazi” – 7 ta materiallarni joylashtirgan.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bannerlar, ko‘rgazmali stendlar tayyorlandi. Ularni ommalashtirish maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida axborot materiallari va ishonch telefoni va elektron pochta to‘g‘rsidagi ma‘lumotlar joylashtirilgan (xavola: <https://t.me/uzdavgeolcom/22657>, t.me/uzdavgeolcom/22015, t.me/uzdavgeolcom/22255, t.me/kitabgmtb/1683, t.me/uzbekgidrogeologiya/3265, t.me/ipkuz/5332, t.me/kontexnazorat/1826, t.me/kontexnazorat/2243, t.me/hydroengeo/6297, t.me/yerqaridanfoydalanishmarkazi/2226).

Bundan tashqari, hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlar, xususan “Korrupsiyaga qarshi siyosat”, “Sovg‘a olish va berish siyosati”, “Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish” va “Odob-axloq qoidalari” haqidagi videomaterial vazirlikning rasmiy sahifalarida e‘lon qilinib, lokal guruh orqali xodimlarga namoyish etildi (xavola: t.me/uzdavgeolcom/21979, t.me/uzdavgeolcom/22046, t.me/uzdavgeolcom/21638, <https://t.me/uzdavgeolcom/22535>, <https://t.me/uzdavgeolcom/22581>).

Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish bo‘yicha 2026-yilga mo‘ljallangan Dasturda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan har oy va chorak yakunida hisobot tayyorlanib, “E-anticor.uz” platformasi orqali Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yuborilmoqda.

9. Tizimda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularning oldini olish va chek qo‘yish, oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida quyidagi vazifalarni belgilab olindi:

- Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish bo‘yicha 2026-yilga mo‘ljallangan Dasturda belgilangan vazifalar ijrosini to‘liq ta‘minlash;

- Vazirlik va tizimdagi korxonalarda aniqlangan korrupsiogen omillarni inobatga olgan holda, ularning oldini olish va chek qo‘yish, oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida takliflar tayyorlash;

- O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining yagona axborot tizimlari foydalangan holda davlat xaridlari bilan bog‘liq jarayonlarni tahlil qilib borish, korrupsiogen xavf-xatarlarni o‘z vaqtida aniqlash va oldini olish;

- Vazirlik xodimlari tomonidan ichki tartib qoidalarga, shu jumladan, “Odob-axloq kodeksi” talablariga rioya etilishini o‘rganish, manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish bo‘yicha doimiy tahlil o‘tkazish;

- sohaga oid ichki me'yoriy hujjatlarni tatbiq etish hamda tarmoq korxonalaridagi komplayens xizmati xodimlariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish;
- korrupsiyaga taalluqli murojaatlarning adolatli va xolis ko'rib chiqilishini ta'minlash, mazkur sohada huquq-tartibot idoralari bilan hamkorlikni davom ettirish;
- korrupsiya holatlarini oldini olishda ochiqlik tamoyillariga amal qilish, mazkur sohada jamoatchilik bilan nazoratini ta'minlash maqsadida korrupsiya holatlari to'g'risida xabar berish mo'ljallangan aloqa kanallarini ommalashtirish, shuningdek javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini ta'minlash;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilinayotgan chora-tadbirlar samaradorligini har chorakda baholash va aniqlangan holatlar asosida qo'shimcha tadbirlar ishlab chiqish.